




XORAZM VILOYATI
TASHQI SAVDO AYLANMASI
2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 618,5 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,6 mln AQSH dollariga yoki 0,7 % ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 305,2 mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 6,6 % ga ko'paydi) va import hajmi 313,3 mln AQSH dollariga (7,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 8,2 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



1.1- jadval

**Xorazm viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (ming AQSH dollari)**

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
Rossiya	116 643,3	141 737,5	163 117,7
Xitoy	83 051,3	62 353,1	96 509,2
Pokiston	58 918,3	76 234,0	96 219,4
Afg'oniston	473,7	41 456,3	46 805,8
Qozog'iston	23 714,8	29 576,7	31 239,7
Belarus	18 093,6	21 454,7	30 521,0
Braziliya	142 057,1	102 448,5	30 131,8
Eron	15 319,2	23 569,7	23 681,0
Turkiya	50 045,2	34 261,2	21 771,0
Turkmaniston	9 301,9	8 537,2	13 292,0
Germaniya	28 662,9	17 757,6	6 756,9
Hindiston	2 414,0	2 740,4	3 524,7
Iroq	2 299,5	4 009,5	3 192,2
Ozarbajjon	595,0	1 326,6	2 996,3
AQSh	1 021,2	2 693,3	2 902,3
Qirg'iz Respublikasi	27 035,3	1 227,9	2 850,2
Koreya Respublikasi	6 142,8	1 137,3	2 565,1
Italiya	2 228,1	1 260,2	2 448,9
BAA	4 180,6	1 977,1	1 897,0
Polsha	8 914,6	1 004,8	1 471,1

Xorazm viloyati jahonning 128 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (26,4 %), Xitoyda (15,6 %), Pokistonda (15,6 %), Afg'onistonda (7,6 %), Qozog'istonda (5,1 %) va Belarusda (4,9 %) qayd etilgan.


II. XORAZM VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

2.1- jadval

Tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	286 259,6	305 158,4	126,4	106,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	164 024,1	179 144,3	162,2	109,2	57,3	58,7
Ichimliklar va tamaki	366,9	1 830,1	22,2	5,0 m.	0,1	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 538,2	3 747,3	105,6	105,9	1,2	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 484,2	2 494,0	104,5	100,4	0,9	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 123,4	15,9	-	1,4	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	707,9	754,7	44,4	106,6	0,2	0,2
Sanoat tovarlari	88 063,2	70 160,2	109,2	79,7	30,8	23,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	481,9	1 089,3	109,6	2,3 m.	0,2	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	7 386,3	14 386,6	27,4	194,8	2,6	4,7
Xizmatlar	18 083,5	31 532,6	2,2 m.	174,4	6,3	10,3
Boshqalar	-	3,4	-	-	-	0,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 89,7 % ni tashkil etib, asosiy ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (58,7 %), sanoat tovarlari (23,0 %) va turli xil tayyor buyumlar (4,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorazm viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari
(mln AQSH dollari)



2025-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston (31,5 %), Rossiya (22,2 %), Afg'oniston (15,3 %), Qozog'iston (8,3 %), Eron (4,1 %), Turkiya (2,6 %), Belarus (1,1 %), Iroq (1,0 %), AQSH (0,8 %) va Qirg'iz Respublikasi (0,8 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,8 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining XSST bo'yicha eksporti tarkibi (2-xonali)

2.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	179 144,3	109,2
05	Sabzavotlar va mevalar	152 591,7	104,3
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	25 304,7	144,3
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	449,2	143,0 m.
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	99,0	69,4
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	59,9	-
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	632,2	13,0 m.
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	7,6	57,9
00	Tirik hayvonlar	-	-
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
1	Ichimliklar va tamaki	1 830,1	5,0 m.
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
11	Ichimliklar	1 830,1	5,0 m.
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 747,3	105,9
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 911,3	122,4
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	306,5	35,4
28	Metall rudalari va metall parchalari	-	-
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	60,6	2,0 m.
25	Qog'oz massasi va makulatura	-	-
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	466,9	182,3
23	Tabiiy kauchuk	2,1	-
24	Probka va yog'och-taxtalar	-	-



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 494,0	100,4
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 494,0	100,4
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
35	Elektr toki	-	-
32	Ko'mir, koks va briketlar	-	-
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	15,9	1,4
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	15,9	1,4
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	754,7	106,6
52	Noorganik kimyo moddalari	193,7	74,6
56	O'g'itlar	-	-
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	2,7	25,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,1	164,6
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,4	2,6 m.
51	Organik kimyo moddalari	-	-
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	180,6	-
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	324,8	89,0
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	48,3	102,5
6	Sanoat tovarlari	70 160,2	79,7
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	59 791,9	74,4
68	Rangli metallar	0,1	-
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	197,2	2,6 m.
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	5 065,3	2,7 m.
67	Cho'yan va po'lat	-	-
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	-	-
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	5 062,3	88,4
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	21,0	3,2 m.
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	22,4	2,8 m.
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 089,3	2,3 m.
78	Avtomobillar (havo yostiichalari transport vositalari ham) shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari	8,7	15,1
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	237,0	2,6 m.
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	342,3	3,1 m.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	22,5	-
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	206,1	102,9
79	Boshqa transport uskunolari	165,4	-
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	17,8	16,0 m.
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	89,5	-
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	14 386,6	194,8
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	11 884,8	178,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	432,9	3,7 m.
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	77,3	92,6
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	1 724,0	203,2 m.
85	Poyabzal	72,8	14,9
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	9,4	4,3 m.
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	115,2	7,9 m.
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	70,3	-

2025-yil yanvar-sentabr oylarida 93,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,1 % yoki 42,3 ming tonnaga kamaydi.


Meva va sabzavotlar eksporti

2.3- jadval

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Hajmiga nisbatan, ulushi % da
Jami	93 816,4	152 538,8	100,0
mevalar va rezavorlar	13 784,7	12 789,9	8,4
quritilgan uzum	2 814,6	4 675,5	3,1
quritilgan olxo'ri	142,6	168,9	0,1
uzum	138,9	75,8	0,1
quritilgan o'rik	434,1	770,8	0,5
quritilgan nok	372,1	209,3	0,1
xurmo	419,9	380,9	0,2
olma	1 248,0	544,8	0,4
o'rik	2 601,6	1 578,7	1,0
gilos	752,9	872,5	0,6
shaftoli	2 582,9	2 279,4	1,5
olxo'ri	2 277,1	1 233,3	0,8
sabzavotlar	34 822,0	10 759,9	7,2
piyoz va sarimsoq	31 176,9	8 984,5	5,9
karam	978,7	251,6	0,2
pomidor	804,3	915,9	0,6
sabzi	1 457,8	316,1	0,2
bodring	254,5	237,0	0,2
lavlagi	149,8	54,8	0,1
loviya	17 224,4	107 945,0	70,8
qovun-tarvuz	12 193,6	2 944,4	1,9
yeryong'oq	186,8	367,0	0,2
boshqalar	15 604,9	17 732,6	11,5

2025-yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 152,5 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 50,0 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi






2025-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha 42,6 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 14,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 38,8 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta matolari (28,1%) va tayyor kiyimlar (27,4 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 31,5 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 10,3 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 74,4 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (39,0 %), safarlar (turizm) (25,5 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (21,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (0,3 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga boshqa xizmatlar 13,7 % ni tashkil etib, moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keldi.

III. XORAZM VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 313,3 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (32,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (30,4%), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (18,0%), sanoat tovarlari (6,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Xorazm viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami import	336 821,9	313 252,9	77,4	93,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	161 152,0	95 402,9	99,0	59,2	47,8	30,4
Ichimliklar va tamaki	391,9	60,3	190,4	15,4	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29 548,8	56 338,5	91,7	190,7	8,8	18,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5 280,8	8 976,7	60,4	170,0	1,6	2,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 712,5	3 035,9	69,8	177,3	0,5	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	18 241,9	19 575,8	105,9	107,3	5,4	6,2
Sanoat tovarlari	14 332,1	19 692,4	52,5	137,4	4,3	6,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	99 093,1	100 189,0	57,1	101,1	29,4	32,0
Turli xil tayyor buyumlar	7 068,5	9 981,5	65,2	141,2	2,1	3,2
Boshqalar	-	76,4	-	-	-	0.02



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oyida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,5 mln AQSH dollariga kamaydi va 313,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Xorazm viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025-yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati 59 ta davlatdan tovarlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlardan Rossiya (30,4 %), Xitoy (30,2 %), Braziliya (9,6 %), Belarus (8,7 %), Turkiya (4,4 %), Eron (3,6 %) va Turkmanistonning (3,6 %) jami importdagi ulushi 90,5 foizni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining XSST* bo'yicha importi tarkibi (2-xonali)

3.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	95 402,9	59,2
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 172,9	75,3
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	72 853,1	50,6
05	Sabzavotlar va mevalar	1 137,8	134,7
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	225,8	3,1 m.
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	695,7	140,9
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	3 715,4	122,7
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	12 191,9	151,6
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	20,1	168,2
00	Tirik hayvonlar	1 390,2	3,1 m.
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
1	Ichimliklar va tamaki	60,3	15,4
11	Ichimliklar	60,3	15,4
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	56 338,5	190,7
24	Probka va yog'och-taxtalar	52 758,3	195,1
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	224,5	80,4
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	251,5	92,4
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 440,4	146,0
28	Metall rudalari va metall parchalari	3,2	83,5
25	Qog'oz massasi va makulatura	-	-
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	660,0	2,4 m.
23	Tabiiy kauchuk	0,5	44,1
21	Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	-	-



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8 976,7	170,0
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	8 143,0	162,9
	Benzin (avtomobillar uchun)	-	-
35	Elektr toki	-	-
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	483,0	8,6 m.
32	Ko'mir, koks va briketlar	350,7	154,3
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3 035,9	177,3
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3 035,9	179,4
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
41	Hayvonlarning yog'lari	-	-
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19 575,8	107,3
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 596,3	133,7
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	10 689,1	101,0
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 121,0	110,5
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	933,6	139,0
51	Organik kimyo moddalari	1 283,6	123,4
52	Noorganik kimyo moddalari	704,6	81,0
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 578,8	133,4
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	505,9	122,0
56	O'g'itlar	162,9	44,1
6	Sanoat tovarlari	19 692,4	137,4
67	Cho'yan va po'lat	3 287,4	2,5 m.
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 667,7	172,7
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 717,3	156,7
62	Rezina buyumlari	1 248,5	104,9
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3 226,4	139,9
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	2 445,2	70,4
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	1 042,5	115,8
68	Rangli metallar	37,2	97,2
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	20,3	-
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	100 189,0	101,1
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	43 427,8	100,2
78	Avtomobillar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham) shu jumladan: ehtiyot qismlar	8 464,6	73,7
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	10 875,3	108,7
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	29 066,8	3,8 m.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	3 185,3	2,8 m.
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3 016,3	128,5
79	Boshqa transport uskunolari	721,6	3,2
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	815,0	6,1 m.
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	616,2	124,2
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	9 981,5	141,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 103,7	134,0
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 070,8	80,8
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	441,8	3,5 m.
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5 989,4	175,0
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	181,5	4,2 m.
85	Poyabzal	144,8	2,9 m.
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	17,0	3,5 m.
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	32,5	92,1



IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: +998622246516 (9090)	Ijrochi: R.Buxarbayev Tel: +998622246509 (9040) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi, 93
---	--	--	---